

FRANSUZ VA O'ZBEK TILLARIDA KO'P MA'NOLI «YOSH» SO'ZINING
IFODALANISHI

Jo'rayeva Moxinur Najmiddin qizi

Farg'ona davlat universiteti talabasi

Hozirgi «yosh» va «âge» so'zlarining izohlari tahlili shunday xulosaga olib keladiki, qiyoslanayotgan har ikkala tilning ham olam manzaralarida ular ma'nolari jihatidan bir-biriga to'liq mos keladi va ikkita umumiy mazmun bilan to'ladi: 1) mavjudlik vaqti, u kimnidir tug'ilgan lahzasidan boshlab yashalgan yillarning soni yoki biror-narsaning ko'rinishi, vujudga kelishi, paydo bo'lishi; 2) taraqqiyotning ma'lum pog'onasi, kimningdir yoki nimaningdir oldingi va keyingi davrlar oralig'idagi mavjudligi.

Ko'p ma'nolarga ega bo'lgan «yosh» so'zini ifodalovchi o'zbekcha va fransuzcha so'zlar tegishli tillarda bir qancha sinonimik qatorlarga yoki paradigmalarga kiradi. Bu qatorlarda ifodalanayotgan hodisalarning turli jihatlarini keskin ajratib ko'rsatuvchi semantik sinonimlar ham, bu hodisaga rang-barang bahoviy tavsif beradigan stilistik sinonimlar ham mavjud. Lug'at ta'riflarini va ularning har bir ma'nosidagi sinonimlar sonining tahlili ma'lumotlarini solishtirib, har ikkala tilda ham «yosh» va «âge» so'zlarining umumiy ma'nolaridagi sinonim so'zlar va so'z birikmalari deyarli aynan o'xshashligini kuzatamiz. Bitta holatdan tashqari: fransuz tilidan farqli ravishda, o'zbek tilida «umrning so'nggi davri, keksayganlik yillari» kabi ma'noni ajratib ko'rsatadilar. Ya'ni olam til manzarasining bu parchasi aynan o'zbek tilida eng diskret tarzda ko'rsatilgan. O'zbek tilida «yosh» tushunchasini konseptuallashtirishning ikkinchi farq qiluvchi jihati shundan iboratki, ushbu verballashtirilgan tushunchaning ma'nolari ko'lamida «vaqtning noma'lum bo'lagi, davri» ottenkasi ajralib turadi. Fransuz tilida esa «âge» so'zining bunday ma'nosi ajratib ko'rsatilmaydi.

«Yosh» va «âge» so'zlarining izohlarini solishtirish davomida «vaqt» fenomenlarini konseptuallashtirishning antropotsentrik xarakteri inson «yoshi» orqali aniqlandi. Har ikkala tilda ham vaqtning uzoq bo'laklari, davrlar, inson umrining uzunligi «avlodni» ifodalovchi tegishli sinonimlar bilan birga, «kimningdir yoki nimaningdir hozirgi hayoti, vaqt davri; kimdir tegishli bo'lgan avlod» orqali tushuniladi. Shuningdek, har ikkala tilda «davr, inson umri bosqichi» ma'nosini alohida ma'noda davrlar, insoniyat tarixidagi davrlarni ifoda etuvchi tarixiy vaqtning kechishiga bog'lash muhim hisoblanadi.

Fransuz tilida shaxs nomlarining «yosh» belgisi bo'yicha gender aspektini tadqiq qilayotganda misol tariqasida quyidagi leksemalar xizmat qilishini kuzatamiz: garcon - bola, o'g'il bola, fille- voyaga yetmagan qiz; qiz bola, qizcha; voyaga yetgan qiz, vieux - qari chol, boboy, vieille - qari xotin, kampir kabilar. «yosh» tushunchasi olamning lisoniy manzarasini mujassamlashtirishda muhim rol o'ynaydi, chunki inson hayotining yoshiga qarab belgilanadigan davrlari bilan bog'liq bo'lgan tasavvurlar,

bilimlar, baholar asosida borliqning turli hodisalarini tushunib yetish sodir bo'ladi. Inson xarakteristikalaridan biri uning ijtimoiy-madaniy yoki gender (irsiy) tegishlilik bo'lib, u biologik jinsga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq va tilda o'z ifodasiga egadir. Bunda tilshunoslikdagi gender yondashuvi tilning odamga yo'naltirilgan o'rganishning keyingi taraqqiyotini namoyon etadi va tildagi inson omilini aniqroq hisobga olish imkonini beradi.

Yosh obyektiv borliqning ajralmas elementi bo'lib, u til sohiblarining ongida til va nutq vositalari majmuida aks etadi. Yosh nomlari tashkil topgan tizim sifatida G.A.Putyaginining dissertatsiyasida hamda N.D.Arutyunova, Ye.V.Raxilining ishlarida ko'rib chiqilgan. Bolalar nomlarini o'rganishni rus tilida A.T.Ashxarova va R.I.Xashimovlar tadqiq qilganlar. V.G.Gak rus va fransuz tillari asosida, L.T.Kostina esa inglizcha va ruscha yosh sifatlarini tadqiq qilgan bo'lsa, V.I.Matveyevning (rus, ukrain, ingliz tili materiali asosida), I.Yu.Protsenkoning (ispan va ukrain tillari materiali asosida) qiyosiy tadqiqotlari katta amaliy va nazariy ahamiyatga ega.

«Yosh» tushunchasining ayrim komponentlari ham qiyosiy tahlilning obyekti bo'ldi. Odamlarni yoshlari bo'yicha nomlashning milliy o'ziga xosligi diaxronik nuqtai nazardan L.F.Frolova tomonidan aniqlandi, balog'atga yetganlar tematik guruhlarining rus tilidagi nomlari tahlil qilindi. «Yosh» tushunchasi murakkab mental kompleks sifatida rus, Britaniya va Amerika lingvomadaniyatlarining qadriyatlarini tizimida I.M.Lyubina tomonidan ko'rib chiqildi.

I.N.Ziryanova shaxs nominatsiyasining o'ziga xos xususiyatlarini jins-yosh parametrlari bo'yicha nikohga oid e'lonlarning matnlarida (ingliz va rus tillaridagi materiallar asosida) o'rganadi.

Biroq tilshunoslikda «yosh» belgisi bo'yicha shaxslarni nominatsiyalashning aynan gender jihati yetarli darajada o'rganilmaganligi hamda fransuz va o'zbek tillarida alohida-alohida va qiyosiy-chog'rshtirma aspektlarda umuman o'rganilmaganligi kuzatiladi.

Til haqidagi fan taraqqiyotining hozirgi bosqichi kognitiv lingvistika, kategoriyalashtirish va konseptuallashtirish, leksika va frazeologiyaning milliy-madaniy o'ziga xosligi, madaniyatlararo kommunikatsiya, madaniy konseptlar, gender tadqiqotlarining lingvistik jihatlari va boshqa dolzarb masalalarga qiziqishning ortganligi bilan xarakterlanadi. Turli tillar materiallari asosida til ma'nolarining tiplari, leksik ma'noning jihatlari, leksik va frazeologik semantikaning o'zaro bog'langanlik muammolari, til birliklarining semantik tuzilish masalalari, leksik nominatsiyaning o'ziga xos xususiyatlari tadqiq qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Akhrorova Ruzikhon Usmonovna. LEXICAL-SEMANTIC EXPRESSION OF EARLY YOUTH/JEUNESSE IN FRENCH. International scientific and practical in

"MODERN PHILOLOGICAL PARADIGMS: INTERACTION OF TRADITIONS AND INNOVATIONS II". 2022/4/5. – P.166-168.

2. Akhrorova Ruzikhon Usmonovna. Naming of the “age” concept. SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL. 2022/10/20. –P. 178-182.

3. Akhrorova Ruzikhon Usmonovna. Essay writing terms. Texas Journal of Multidisciplinary Studies. 2022/12/22. –P. 107-109.